

MAKTABGA TAYYORLOV MASHG'ULOTLARIDA BOLALAR KOGNITIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMIY O'YINLAR

Jo'rayeva Nigina Xayrullo qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabga tayyorlov mashg'ulotlarida kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarning diqqat, xotira, tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatlari samarali shakllantiriladi. Shuningdek, maqolada maktabga tayyorlov jarayonida o'yinlar yordamida kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari va amaliy tavsiyalar berilgan. Bu yondashuv bolalarning maktabga muvaffaqiyatli kirishishiga va o'qishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorlov, kognitiv ko'nikmalar, ta'limiy o'yinlar, bolalar rivoji, diqqat, xotira, tafakkur, muammolarni hal qilish.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение развивающих игр в развитии познавательных способностей детей дошкольного возраста в подготовительных классах к школе. Развивающие игры эффективно формируют у детей внимание, память, мышление и навыки решения задач. В статье также представлены методики и практические рекомендации по развитию познавательных способностей с использованием игр в процессе подготовки к школе. Такой подход способствует успешному поступлению детей в школу и повышению их интереса к обучению.

Ключевые слова: подготовка к школе, познавательные способности, развивающие игры, развитие ребенка, внимание, память, мышление, решение задач.

Abstract. This article analyzes the role and importance of educational games in the development of cognitive skills in preschool children's preparatory classes for school. Educational games effectively form children's attention, memory, thinking and problem-solving skills. The article also provides methods and practical recommendations for developing cognitive skills using games in the process of preparing for school. This approach helps children successfully enter school and increase their interest in learning.

Keywords: preparation for school, cognitive skills, educational games, child development, attention, memory, thinking, problem solving.

O'quv mashg'ulotlarini o'tkazayotganda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish orqali maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning turli xil ta'lim sohalarida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga, kognitiv qiziqishni rivojlantirishga va

mustaqil ravishda xulosa chiqarishga imkon beradi.

Ta'limiy o'yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri, unda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olinishi bo'lsa, yana bir ijobiy tarafi esa bolaning rivojlanishi uchun imkoniyatlarning oshishi kuzatiladi. Ya'ni, ta'limiy o'yinlarda bolalarning nutqi, bilishga intilishi, aqliy qobiliyatlarini ishga solish holatlari kuzatiladi. Shu xususiyatlariga ko'ra ta'limiy o'yinlar kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilish asnosida quyidagicha tasniflanadi:

1-guruh: *Perseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar;*

2-guruh: *intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar;*

3-guruh: *mnemonik ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar.*

Ularning har biri mazmuni va tashkil etilishi haqida to'xtalib o'tamiz.

Perseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar.

Perseptiv ko'nikmalar o'z navbatida sezgi, idrok va diqqatni rivojlantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy o'yinlarni guruhlagan holda keltirib o'tamiz.

Idrokni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar.


“O'zgarishlarni aniqla” o'yini.

Maqsad: bolaning diqqatini rivojlantirish.

Jihozlar: qog'oz, rasm qalamlar.

O'tkazilishi: pedagog bolalarga biror bir suratni chizish topshirig'ini beradi. Bolalar chizib bo'lishgach, pedagog chizilgan suratni oladi va unga o'zgarishlar kiritadi: ayrim detallarni o'zgartiradi, oxirigacha chizadi yoki ortiqcha chiziqlarni o'chiradi.

Kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni tarkibiy qismlarini quyidagi chizmada keltirib o'tamiz.



1-rasm. Kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni tarkibiy qismlari.

Shundan so'ng suratlar egalariga qaytariladi. Pedagog bilan bolalar muloqoti orqali

suratdagi belgilar va ularning joylashuvidagi o'zgarishlar aniqlanadi.

“Predmetlar joyini top” o'yini

Maqsad: maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning sezgi, idrok, diqqat va xotirasini rivojlantirish va sensor kognitiv rivojlanishni aniqlash

Jihozlar: turli xil geometrik shakllar tasvirlangan rasmlar. Metodika uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.


Diqqatni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar.

“Berkatilgan shakllarni top” o'yini

Mazkur o'yin maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning diqqat, tafakkur va idrokini rivojlantirishda qo'llash mumkin.

O'yin jihozlari: turli rangdagi geometrik shakllar.

Ko'rsatma: Quyida turli xil va turli rangdagi geometrik shakllar berilgan. Har bir shaklning nechtadan keltirilganini aniqlang, sanang va rangini farqlang.



2-rasm. “Berkatilgan shakllarni top” o'yini uchun qo'llanma.

“Nima yo'qolib qoldi?” o'yini

Maqsad: bola xotirasi, diqqatini va nutqini rivojlantirish.

Jihozlar: bir necha turdagi predmetlar.

O'tkazilishi: stol ustiga 10 dan ortiq turli xildagi predmetlar terib qo'yiladi. Bolalar taklif qilinadi va ular 1-2 daqiqa davomida stol ustidagi predmetlar va ularning joylashish tartibini ko'zdan kechirib esda saqlab qolishlari lozim bo'ladi.

Shundan so'ng bolalar teskari o'girilib turishadi. Pedagog esa predmetlar joylashish tartibini o'zgartiradi, ularning ayrimlarini boshqasi bilan almashtiradi yoki biror predmetni olib quyadi.

Shundan so'ng bolalarga yana predmetlarni kuzatgan holda, nima o'zgarish bo'lganligini aniqlash topshirig'i beriladi.

Intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishining asosiy jarayonlaridan biri intellektual rivojlanish jarayoni bo'lib, bu jarayon o'z ichiga

tafakkur, tasavvur va nutqni rivojlantirishni qamrab oladi. Ushbu har bir psixologik-pedagogik xususiyatlarni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlarni keltirib o'tamiz.

Tafakkurni rivojlantirishga doir ta'limiy o'yinlar.

"Xarsang tosh haqida..." ta'limiy o'yini.

Maqsad: Bolalarda qattiq moddaning tuzilishi haqida tasavvurlarini mustahkamlash, bolalarga tashqi omillarning qattiq moddaga ta'sirini ko'rsatish. Tadqiqot muammolarini hal qilishni o'rgatish.

Ushbu kognitiv vazifani hal etishda "Bu nimaga o'xshaydi?" o'yinini tashkil qilishdan boshlanadi. Uning mohiyati maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni quyidagi topishmoqlarni topishidir:

Rangim sichqoncha rangiga o'xshaydi.

Shaklimga ko'ra men tuxumga o'xshayman.

O'lchamimga ko'ra men filga o'xshayman.

(tosh – xarsang tosh)

Jumboq-topishmoq ta'lim sohasidagi "Bilishga oid" muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Shundan so'ng maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar uchun muammoni oldindan aniqlab, muammoni tezda hal qilishga o'tiladi: bolalar hududimizda xarsang tosh bor. U ikkiga bo'linib ketgan. Uni kim ikkiga bo'ldi? Kim sindirdi? Bu savolga javob berish uchun bolalarga mo'jiza-ekrandan foydalanishni taklif qilindi va navbati bilan quyidagi savollar berildi:

1. Masalada qanday obyekt haqida gapirilmoqda? (xarsang tosh haqida).
2. Xarsang tosh qanday qismlardan iborat? (odamchalardan). Qani, xarsang toshda "odamlarchalar"ni ko'rsatingchi, odamchalarni rasmi xarsang toshga chiziladi.
3. Xarsang tosh qayerda joylashgan? Unga ob-havo qanday ta'sir qiladi? (issiqlik, sovuq, yomg'ir va boshqalar).
4. Qachon sovuq, qachon issiq bo'ladi? (u yil mavsumiga bog'liq bo'ladi: qishda qor, sovuq va boshqalar).
5. Yozda, bahorda va kuzda ob-havo qanday o'zgaradi? (kunduzi issiq, kechasi sovuq; ba'zan sovuq, ba'zan yomg'ir ...).

Shundan so'ng quyidagi xulosaga kelinadi: sutkaning o'zgarishi bilan havo harorati ham o'zgaradi. Ushbu suhbatni tashkil qilish bolalarning bilimlarini integrallashtiradi va bir qancha ta'lim sohalari "Bilish", "Ijtimoiylashtirish" va "Muloqot" kabi vazifalarini yechishga imkon beradi.

Ko'rsatilgan hodisani yanada ko'rgazmali tarzda namoyish etish uchun: "Sovuq - issiq" o'yini o'tkazildi. Ushbu o'yinda bolalarga xarsang toshdagi "odamchalar" rolini o'ynash taklif qilindi. Bolalar uchun holat belgilab berildi: Sovuqqotdingizmi. Endi issiqmi. Sovuq, issiq (Bolalar tezlashishadi yoki sekinlashishadi). Muammoning yechimining bunday vizual namoyish etilishi "Jismoniy madaniyat" ta'lim sohasidagi maqsadlarning amalga oshirilishini ta'minladi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda intellektual qobiliyatlarini o‘stirish uchun intellektual topshiriqlar taqdim etiladi. Xususan, “Shaklni hosil qiling” nomli ta’limiy - o‘yindan foydalanish mumkin.

Maqsad: maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni predmetlarning elementar shaklini tahlil qilishga o‘rgatish. Bolalarga turli xil shakllarni to‘plash taklif qilinadi. Masalan, bolalarga samolyot ko‘rsatiladi. Rasm bolalar uchun ko‘rinadigan joyga joylashtiriladi. Bolalarga rasmni yig‘ish mumkin bo‘lgan shakllar to‘plami tarqatiladi. Bola rasmni o‘zidagi detallardan yig‘ayotganda, pedagog ushbu rasm namunaga qanchalik mos kelishini kuzatib boradi. Pedagog bolalar tomonidan topshiriqlarni bajarilishini to‘g‘ri va tezlikda bajarilishini baholaydi. Shundan so‘ng pedagog bolalarga keyingi rasmlarni beradi. Ushbu o‘yin shartlarini bajarish davomida bolalar obyektlarning tuzilishini tahlil qilishni o‘rganishadi.

“Uchinchisi ortiqcha” o‘yini

- Maqsad: bolalarni tahlil qilish va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatishga doir ko‘nikmalarini shakllantirish.

- O‘yinining borishi:
- Pedagog uchta tushunchani aytadi. Ularning ikkitasi mantiqan bog‘liq, uchinchisi ortiqcha bo‘lishi lozim.

- Bola so‘zlar qatoridagi ortiqcha tushunchani topa bilishi kerak. Masalan,
- olma, nok, bo‘ri;
- kitob, quyon, ruchka;
- bo‘ri, sigir, echki;
- lola, limon, binafsha;
- divan, kreslo, televizor; ...

So‘zlar o‘rniga narsa yoki hodisalar rasmdan ham foydalanish mumkin.

Har bir javobdan keyin, albatta, pedagog bolaga “Nima uchun shunday?” degan savolni berishi va javobni izohlashni so‘rashi muhimdir.

“To‘g‘ri so‘zni top” o‘yini

Maqsad: bolalarni tafakkurini o‘stirish.

O‘yinining borishi: pedagog so‘zlar qatorini aytadi. Har bir so‘z qarama-qarshi ma’noli o‘z jufti bilan talaffuz qilinadi. boladan bo‘sh turgan o‘rinda so‘zning juftini topish talab etiladi.

Masalan,

Oq – qora;

kun – ...;

Divan – kreslo;

stol – ...;

Issiq – ...;

Och – ...;

Ho‘l – ...;

Shirin –

“Kim ko‘p topadi?” o‘yini

Maqsad: bolalarni tushunchalarni umumiy xususiyatlariga ko‘ra tasniflashga o‘rgatish, tafakkurini o‘stirish.

O‘yinining borishi:

Pedagog bolalarga savol bilan murojaat qilib, ma’lum bir belgiga ega bo‘lgan predmetlarni nomini aytishni so‘raydi.

Ko‘p so‘z topgan bola g‘olib bo‘ladi.

1. Savollar quyidagi tarzda berilishi mumkin:
2. Nima oq rangda?
3. Nima yumshoqqina?
4. Nima juda og‘ir?
5. Nima juda shirin?
6. Nima juda uzun?

“Juftini top” o‘yini

Maqsad: maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning diqqat, sezgi, idroki va tafakkur jarayonlarini rivojlantirish.

O‘yin jihozi: Turli shakllar va predmetlar chizilgan jadval.

O‘tkazish tartibi: Bu o‘yin 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, individual yoki kichik guruhlarda olib borish mumkin.

Ko‘rsatma: Bolaga turli shakllar va predmetlar chizilgan jadval beriladi. Namunada berilgan predmet va shakllar juftini topish topshirig‘i beriladi.

Topshiriqni bajarishga 40-50 soniya vaqt ajratiladi.

“Kunning qaysi vaqti?” o‘yini

O‘yinining maqsadi: Bolalarning diqqat, xotirasi, tafakkur va tasavvurini rivojlantirish.

Jihozlari: Kunning turli vaziyatlari tasvirlangan rasm asosida olib boriladi.

O‘tkazish tartibi: bu metodikani individual tarzda olib borgan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tasavvur shaxs kognitiv ko‘nikmalaridagi intellektual jarayonlarning asosi bo‘lib, uni rivojlantirish insonga turli kashfiyotlar qilish, yangiliklar yaratishga yordam beradi va kreativlikka o‘rgatadi. Tasavvurni rivojlantirishda quyidagi bir qator o‘yinlardan foydalaniladi.

“Predmetlar sonini aniqlang” o‘yini.


Maqsad: bolalarning diqqat va matematik tasavvurlarini shakllanganligini aniqlash.

Jihozi: Turli predmetlarning rasmi chizilgan jadval.

O‘tkazish tartibi: Bu o‘yinni individual va guruhii o‘tkazish mumkin. Bolaga turli predmetlarning rasmi tasvirlangan 1-jadval ko‘rsatiladi. 1 daqiqa davomida turli predmetlarni sanash va esda saqlab qolish vazifasi topshiriladi. 1 daqiqadan keyin

ikkinchi jadval bo'sh katakchalarigaesda saqlab qolgan predmetlar sonini bo'sh katakchalarga yozish vazifasi topshiriladi.

Ko'rsatma: Har bir jadvaldagi predmetlarni sanang va uning natijasini bo'sh kataklarga yozing.



3-rasm. "Predmetlar sonini aniqlang" o'yini uchun chizma.

"Bu nimaga o'xshaydi" o'yini

Maqsad: bolaning tasavvurlarini o'stirish.

O'yinni o'tkazish tartibi: pedagog bolalarga turli xildagi buyum, jihoz yoki boshqa narsalarni rasmini ko'rsatadi. Bolalar ushbu rasmga o'zgarish kiritib uning nimaga o'xshashligini topishlari talab etiladi. Masalan beshta barmoq rasmi. U nimaga o'xshashi mumkinligi yoki ushbu rasmga o'zgarish kiritib nimaning rasmini hosil qilish mumkinligini topish talab etiladi.

"Shakl hosil qilamiz" o'yini

O'yinning maqsadi: bolalarning tasavvurlarini o'stirish.

O'tkazish tartibi: pedagog bolalarga rangli qog'ozlardan kesib tayyorlangan rang-barang geometrik shakllarni tarqatib beradi. Yordam tariqasida turli buyumlarning andozalari chizilgan qog'ozlar ham tarqatilishi mumkin.



4-rasm. “Bu nimaga o‘xshaydi” o‘yini

Nutq insonning kognitiv ko‘nikmalari shakllanganligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lish bilan bir qatorda shaxs kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita ham hisoblanadi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishga qaratilgan bir nechta o‘yinlar xususida to‘xtalib o‘tamiz.

“Kichkina rassom” o‘yini

Maqsad: bolalar nutqini, tasavvurini o‘stirish, diqqati va xotirasini rivojlantirish.

O‘tkazilishi: pedagog bolalar ichidan navbat bilan rassom rolini bajaruvchi bolani o‘rtaga taklif qiladi. “Rassom” bolaga tabiat tasvirlangan surat ko‘rsatiladi. Yoki bola o‘rtoqlaridan biri taklif qilinadi. 1 daqiqa davomida “Rassom” bola suratni yoki o‘rtog‘ini yaxshilab ko‘zdan kechiradi. Shundan so‘ng surat olib quyiladi yoki bola o‘rtog‘lariga teskari o‘girilgan holda xotirasida saqlab qolgan ma’lumotlarni aytib berishi lozim. Ya’ni suratdagi tasvirni yoki o‘rtog‘ini og‘zaki ravishda qayta rasini chizib berishi lozim bo‘ladi. Bunda bolaning mayda detallarga e’tibor qaratishi va so‘zlardan o‘rinli foydalanishi muhim hisoblanadi. Zaruriy hollarda pedagog savollar bilan yordam berib turishi mumkin.

“Bu nimadan va qanday tayyorlangan?” o‘yini

Maqsad: bolaning og‘zaki nutqi, tasavvuri va tafakkurini o‘stirish.

O‘tkazilishi: pedagog bolalarga biror predmetni ko‘rsatadi. Bolalar ixtiyoriy ravishda ushbu predmet haqidagi ma’lumotlarni aytib berishi lozim. Bunda pedagog quyidagi savollar bilan yordam berib turishi mumkin:

1. Bu nimadan yasalgan (yoki qayerdan olinadi, qayerda pishadi)?
2. Uning yana boshqachalari (boshqa rangda, shaklda, ta’mda) ham bormi?
3. U qanday tayyorlanadi?
4. Nima uchun ishlatiladi?
5. Uni saqlab quyish mumkinmi? Qanday qilib?
6. Siz uni yoqtirasizmi? Nima uchun?

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda mnemonik jarayonlarni shakllantirishda quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalaniladi.

“Bu kimning uychasi?” o‘yini

O‘yin maqsadi: diqqat, idrok va xotirani rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Bolalarga 10 soniya vaqt davomida avval 1-rasm ko'rsatiladi. Unda hayvonchalar o'zlarining uycharidan qarab turganligi tasvirlangan. So'ng rasmni olib qo'yib, hayvonchalar uycharidan tashqarida tasvirlangan 2-rasm ko'rsatiladi. Bola hayvonchalarni qaysi uyda yashashini topib, uycha bilan hayvonchani qalam bilan birlashtirib qo'yishi lozim. Buning uchun bolaga 40 soniya vaqt beriladi.

Ko'rsatma: Hozir sizga 1-rasm ko'rsatiladi, siz qaysi hayvoncha qaysi uychada joylashganligini yaxshilab ko'rib olishingiz lozim. So'ng rasm olib qo'yiladi va 2-rasm ko'rsatiladi. 2-rasmda hayvonchalar uycharidan tashqarida tasvirlangan. Siz har bir hayvonchaga uychasini topib bering va qalam bilan birlashtiring.


"Eslab qolamiz" o'yini

Maqsad: Bolalarning xotirasini, tasavvurini va qo'l matorikasini rivojlantirish.

O'yin jihozi: Predmetlarning rasmi, oq qog'oz va qalam.

O'tkazish tartibi: Bolaga oldindan tayyorlab qo'yilgan oq qog'oz va qalam beriladi.

Ko'rsatma: Bolaga rasmdagi predmetlarni eslab qolishlari uchun 30-50 soniya daqiqa vaqt beriladi. Predmetlarning rasmini oq qog'oz bilan yopib, ularni eslab qolgan rasmini chizish kerakligi tushuntiriladi.



5-rasm. "Eslab qolamiz" o'yini uchun qo'llanma.

"Kesilgan suratlar" o'yini

Maqsad: bolaning ko'ruv xotirasini rivojlantirish.

O'yin jihozlari: ikkita bir xil surat chizilgan qog'ozlar.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ulardan mashg'ulotlar davomida samarali foydalanish mumkin. Ulardan foydalanayotganda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish talab etiladi:

1. Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish.
2. O'yin shartlariga va talablariga amal qilish.
3. Bolalarga o'yin mazmuniga ijodiy o'zgarishlar kiritish imkoniyatini berish.
4. Asosiy e'tiborni bolalarni psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

5. O'yinlarni qo'llashda dastur talablari va vaqt me'yorlariga amal qilish.

Xulosa. Maktabga tayyorlov mashg'ulotlarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish bolalarning kognitiv ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yinlar yordamida bolalar diqqatini jamlash, xotira qobiliyatini oshirish, tafakkur va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, ta'limiy o'yinlar nafaqat bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki ularning maktabga muvaffaqiyatli moslashishida ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'yinlarning ahamiyatini oshirish va ularni to'g'ri tanlash pedagoglar uchun ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, O. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Islomova, M. (2018). Ta'limiy o'yinlar va ularning bolalar rivojiga ta'siri. Pedagogika jurnal, 3(12), 45-52.
3. Alimardonova M. B. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini kognitiv rivojlantirishda foydalaniladigan yondashuvlar tavsifi. Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikaliq jurnal. №3 2020 jil. 131-135 betlar
4. Sobirov, A. (2019). Kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish metodlari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Mirzaeva, N. (2021). Maktabga tayyorlovda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ilmiy tadqiqotlar, 5(8), 78-85.
6. Qodirov, S. (2017). Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. Toshkent: Fan.
7. Alimardonova M.B. Kognitiv vazifalar-maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini faoliyatga tayyorlashning muhim sharti sifatida. Bola va zamon Toshkent 2021 №3.58-60betlar